



CLASSIFICATION OF NEWSPAPERS AND MAGAZINES OPERATING IN SURKHANDARYA DURING THE INDEPENDENCE PERIOD OF UZBEKISTAN

Zubayda Yuldosheva

Senior Lecturer

Termez State Pedagogical Institute

z.yuldasheva@gmail.com

Termez, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: independence, press, Surkhandarya, newspaper, magazine, mass media, analysis, classification, information policy, local media.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: This article analyzes the formation and developmental stages of the mass media system in Surkhandarya region after Uzbekistan gained independence, focusing on the structure and evolution of local newspapers and magazines. It also examines the thematic orientation and classification of popular regional publications, including political, social, cultural, educational, and youth-oriented newspapers and journals. The study highlights the role of Surkhandarya's press during the independence period in promoting openness, freedom of speech, and a sense of national pride within society.

O'ZBEKISTON MUSTAQILLIGI DAVRIDA SURXONDARYODA FAOLIYAT KO'RSATGAN GAZETA VA JURNALLAR TASNIFI

Zubayda Yo'ldosheva

Katta o'qituvchi

Termiz davlat pedagogika instituti

z.yuldasheva@gmail.com

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: mustaqillik, matbuot, Surxondaryo, gazeta, jurnal, ommaviy axborot vositasi, tahlil, tasnif, axborot siyosati, mahalliy OAV.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng Surxondaryo viloyatida ommaviy axborot vositalarining, xususan, mahalliy jurnallar va gazetalar tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ularning mavzuviy yonalishlari tahlil etilgan. Shuningdek,

mintaqada faoliyat yuritgan ommabop nashrlar — siyosiy, ijtimoiy, madaniy, ta'limiy va yoshlar auditoriyasiga mo'ljallangan gazeta va jurnallar tasniflanadi. Tadqiqot davomida Surxondaryo viloyati matbuoti mustaqillik davrida jamiyatda ochiqlik, so'z erkinligi va milliy g'urur g'oyalarini qaror toptirishdagi o'rnini ham yoritilgan.

КЛАССИФИКАЦИЯ ГАЗЕТ И ЖУРНАЛОВ, ДЕЙСТВОВАВШИХ В СУРХАНДАРЬЕ В ПЕРИОД НЕЗАВИСИМОСТИ УЗБЕКИСТАНА

Зубайда Юлдашева

Старший преподаватель

Термезский государственный педагогический институт

z.yuldasheva@gmail.com

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: независимость, пресса, Сурхандарья, газета, журнал, средства массовой информации, анализ, классификация, информационная политика, местные СМИ.

Аннотация: В данной статье анализируются формирование и этапы развития системы средств массовой информации Сурхандарьинской области после обретения Узбекистаном независимости, в частности — местных газет и журналов. Рассматриваются тематические направления и классификация популярных региональных изданий: политических, социальных, культурных, образовательных и рассчитанных на молодёжную аудиторию газет и журналов. В процессе исследования также освещается роль сурхандарьинской прессы периода независимости в укреплении принципов открытости, свободы слова и национальной гордости в обществе.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng jamiyat hayotining barcha jabhalarida, jumladan, axborot-kommunikatsiya sohasida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalarining erkinlashuvi, milliy matbuotning tiklanishi va hududiy nashriyotlar faoliyatining kengayishi mamlakatda demokratik jarayonlarning kuchayishiga xizmat qildi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning barcha hududlarida bo'lgani kabi Surxondaryo viloyatida ham mahalliy gazeta va jurnallar tarmog'i shakllandi, ularning mavzu doirasi kengaydi, tarkibiy tuzilishi va janr xilma-xilligi ortdi. Bu jarayon Surxondaryoning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim axboriy maydon yaratib, mahalliy jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Avvalgi davrlarda qat'iy nazorat ostida faoliyat yuritgan matbuot endilikda mustaqil, erkin va ochiq ijtimoiy fikr maydoniga aylandi. Yangi siyosiy tuzum, demokratik qadriyatlarning joriy etilishi, soʻz va matbuot erkinligining huquqiy jihatdan kafolatlanishi mamlakat ommaviy axborot vositalarining shakl va mazmun jihatdan yangilanishiga asos boʻldi. Shu jarayonlarda matbuot faqatgina axborot yetkazuvchi emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, milliy oʻzlikni tiklovchi va ma'naviy uygʻonish gʻoyalarini targʻib etuvchi kuch sifatida namoyon boʻldi. Surxondaryo viloyati ham bu keng koʻlamli jarayonlardan chetda qolmadi.

Mintaqa oʻzining tarixiy, madaniy va etnik xilma-xilligi bilan Oʻzbekistonning janubiy axborot makonida alohida oʻringa ega boʻldi. Mustaqillik yillarida Surxondaryoda ommaviy axborot vositalari tizimi shakllanib, ularning faoliyati viloyat hayotining barcha jabhalarini yoritishga qaratildi. Ayniqsa, 1990-yillarning oxiri va 2000-yillarning boshlarida viloyatda ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, ta'limiy va yoshlar yoʻnalishida faoliyat yurituvchi gazeta va jurnallar soni sezilarli darajada ortdi.

Surxondaryoda faoliyat koʻrsatgan nashrlarning mustaqillikdan keyingi rivojlanish bosqichini oʻrganish hududning ijtimoiy-madaniy hayotidagi oʻzgarishlarni tahlil qilishda alohida ahamiyatga ega. Chunki matbuot nafaqat axborot uzatuvchi vosita, balki jamiyatning tarbiyaviy, ma'rifiy, mafkuraviy ehtiyojlarini qondiruvchi, shuningdek, davlat va jamiyat oʻrtasida muloqot maydonini yaratib beruvchi muhim institut hisoblanadi. Surxondaryoda chop etilgan gazeta va jurnallar viloyatning tarixiy merosi, madaniyati, iqtisodiy salohiyati, etnik tarkibi va ma'naviy hayotidagi yangilanishlarni aks ettirib kelmoqda.

Asosiy qism. Viloyatda nafaqat respublika miqyosidagi gazeta va jurnallar filiallari faoliyatini davom ettirgan, balki bevosita mahalliy aholining ehtiyoj va manfaatlarini ifodalovchi mustaqil nashrlar ham shakllandi. "Surxon tongi", "Termiz ovozi", "Denov sadosi", "Boysun hayoti", "Shoʻrchi hayoti" kabi gazeta va jurnallar oʻzining hududiy xususiyatiga mos ravishda Surxondaryoning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotidagi yangiliklarni yoritib bordi[1]. Ushbu nashrlar faqat axborot yetkazuvchi vosita sifatida emas, balki fuqarolik jamiyati gʻoyalarini ilgari suruvchi, aholining ijtimoiy faolligini oshiruvchi, mahalliy muammolarni ochib beruvchi platforma sifatida ham muhim rol oʻynadi.

Shu orqali Surxondaryo matbuoti mintaqada soʻz erkinligini qaror toptirish, ijtimoiy adolat, milliy qadriyatlar va ma'naviy yangilanish gʻoyalarini targʻib etishda oʻziga xos oʻrin egalladi. Mazkur maqola aynan ana shu jarayonlarni oʻrganishga bagʻishlangan boʻlib, unda mustaqillik yillarida Surxondaryoda faoliyat yuritgan ommabop gazetalar va jurnallar tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning mavzuviy yoʻnalishlari, auditoriyaga ta'sir mexanizmlari hamda jamiyatda tutgan oʻrni tasnif asosida yoritiladi. Tadqiqot jarayonida Surxondaryo matbuotining

o'ziga xos xususiyatlari, mintaqaviy xabarlar siyosati, jurnalistik uslublar evolyutsiyasi va raqamli davrga moslashuv jarayonlari ham tahlil etiladi.

1. Mustaqillik davrida Surxondaryo matbuotining rivojlanish bosqichlari

Surxondaryoda mustaqillikning dastlabki yillarida matbuot asosan davlat qo'llab-quvvatlagan nashrlar shaklida rivojlandi. 1990-yillar oxiridan boshlab esa xususiy va nodavlat axborot vositalari paydo bo'ldi.

Misol tariqasida, "Surxon tongi", "Termiz ovozi", "Boysun hayoti", "Denov sadosi", "Sho'rchi hayoti", "Yoshlar ovozi", va "Surxon yoshlari" kabi nashrlarni keltirish mumkin.

Bu bosqichda nashrlar asosan mustaqillik mafkurasi, milliy qadriyatlar, agrar islohotlar, yoshlar tarbiyasi va mahalliy muammolarga bag'ishlangan materiallarni chop etgan.

2. Ommabop jurnallar va gazetalar tasnifi

Surxondaryo matbuotini mazmunan quyidagi toifalarga bo'lish mumkin:

Ijtimoiy-siyosiy nashrlar – "Surxon tongi", "Termiz ovozi", "Boysun hayoti";

Madaniy-ma'rifiy nashrlar – "Surxon madaniyati", "Istiqlol farzandlari";

Yoshlar va ta'lim yo'nalishidagi nashrlar – "Yoshlar ovozi", "Talaba hayoti";

Axborot va tahliliy nashrlar – "Zamon", "Surxon axborotnomasi";

Tuman va shahar gazetolari – "Denov sadosi", "Sho'rchi hayoti", "Jarqo'rg'on hayoti"[1].

Har bir toifa o'z o'quvchilar auditoriyasiga ega bo'lib, ularning mavzu tanlovi, dizayni va tahririy siyosati ham shunga mos shakllangan.

3. Surxondaryo matbuoti mustaqillik yillarida jamiyat hayotining muhim ijtimoiy-siyosiy institutlaridan biriga aylandi. U nafaqat axborot yetkazuvchi vosita, balki fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishida faol ishtirok etuvchi ijtimoiy kuch sifatida maydonga chiqdi. Mustaqillik davrida matbuotning asosiy vazifasi jamiyatda ochiqlik, oshkoralik va so'z erkinligini ta'minlash, fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini kuchaytirish, ularni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga jalb etishdan iborat bo'ldi.

Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan gazeta va jurnallar, xususan, "Surxon tongi", "Termiz ovozi", "Boysun hayoti", "Denov sadosi", "Sho'rchi hayoti" kabi nashrlar aholining turli qatlamlariga mo'ljallangan bo'lib, ular orqali hududdagi yangiliklar, islohotlar, ijtimoiy muammolar va ularning yechimlari muntazam yoritib borildi. Ayniqsa, "Surxon tongi" gazetasi o'zining chuqur tahliliy maqolalari, mahalliy hayotdan olingan dolzarb mavzularni keng yoritishi bilan viloyatda eng obro'li va ishonchli axborot manbalaridan biriga aylandi[2].

Matbuot orqali aholining ijtimoiy faolligi oshdi, jamoatchilik nazorati kuchaydi, tanqidiy fikr madaniyati shakllandi. Nashrlar jamiyatdagi dolzarb masalalarni ko'tarish, mahalliy hokimiyat va fuqarolar o'rtasida muloqot o'rnatish, ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirishda

vositachi rolini bajardi. Shu bilan birga, matbuot xalqni islohotlarning mazmun-mohiyatidan xabardor etish, yangicha dunyoqarashni shakllantirish va mustaqillik mafkurasini targ'ib etishda samarali platformaga aylandi. Shuningdek, Surxondaryo matbuoti yoshlar ongida vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik va fuqarolik mas'uliyati kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishga ham katta e'tibor qaratdi. "Yoshlar ovozi", "Surxon yoshlari" kabi nashrlar yangi avlodning hayotiy qarashlarini, orzu-intilishlarini, ijodiy g'oyalarini ommaga yetkazishda muhim o'rin tutdi[3]. Raqamli davrda esa matbuotning ijtimoiy roli yanada kengaydi. Bugun ko'plab viloyat nashrlari o'z internet sahifalari va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallari orqali aholining fikrini o'rganish, tahlil qilish, muammolarni tezkor yoritish imkoniga ega bo'ldi. Shu orqali Surxondaryo matbuoti zamonaviy axborot tizimining ajralmas qismiga aylandi. Umuman olganda, Surxondaryo matbuoti mustaqillik yillarida jamiyatdagi muhim o'zgarishlarni yoritish, xalq va davlat o'rtasida axborot ko'prigini yaratish, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash va milliy o'zlikni anglash jarayonida beqiyos ahamiyat kasb etdi.

4. Jurnallar faoliyatining o'ziga xos jihatlari

Mahalliy jurnallar — "Istiqlol farzandlari", "Surxon madaniyati" va "Ilm va hayot Surxonda" — ko'proq tahliliy va ma'rifiy yo'nalishda bo'lib, o'quvchi dunyoqarashini kengaytirish, milliy qadriyatlarni asrash hamda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan.

5. Axborot siyosatida modernizatsiya va raqamli bosqich

2010-yillardan boshlab viloyat matbuoti raqamli axborot tizimiga o'ta boshladi. Ko'plab gazetalar o'z onlayn sahifalarini yaratdi: "surxontongi.uz", "denovsadosi.uz", "termizovoz.uz" kabilar bunga misol bo'la oladi. Bu esa axborotga tezkorlik, ochiqlik va interaktivlikni olib kirdi[4].

Mustaqillik yillarida Surxondaryoda ommabop matbuot tizimi yangi bosqichda shakllandi. Viloyatda faoliyat yuritgan gazeta va jurnallar jamiyat hayotining barcha sohalarini — siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, ta'lim, ekologiya va yoshlar masalalarini yoritishda muhim o'rin egalladi. Mahalliy nashrlar avvalo o'z o'quvchisiga yaqin bo'lishga, hudud aholisining muammolari va orzu-intilishlarini ifoda etishga intildi. Shu bois Surxondaryo matbuoti nafaqat axborot tarqatuvchi vosita, balki ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi, jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi va fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga hissa qo'shuvchi kuchga aylandi.

Matbuot orqali xalq va davlat o'rtasida ochiq muloqot maydoni yaratildi. Gazetalar orqali fuqarolar o'z fikrini bildirish, dolzarb masalalar yuzasidan takliflar kiritish imkoniga ega bo'ldilar. Ayniqsa, "Surxon tongi", "Termiz ovozi", "Boysun hayoti" kabi nashrlar viloyatda

sodir bo'layotgan voqealarni tezkor, haqqoniy va xolis yoritish orqali aholining ishonchini qozondi[5].

Bundan tashqari, mahalliy matbuot milliy qadriyatlar, tarixiy meros va ma'naviy boyliklarni targ'ib qilishda ham katta rol o'ynadi. Nashrlar orqali Surxondaryo xalqi o'zining boy madaniyati, urf-odatlarini, an'anaviy san'ati bilan faxrlanish tuyg'usini yanada kuchaytirdi. Bu jarayon, o'z navbatida, mustaqillik mafkurasini, vatanparvarlik va milliy o'zlikni anglash g'oyalarini mustahkamlashga xizmat qildi. Shuningdek, tahririyatlar yosh ijodkorlar, jurnalistlar va adabiyot ixlosmandlarini qo'llab-quvvatlab, ularning ijtimoiy faolligini oshirishga e'tibor qaratdi. Yoshlar sahifalari, madaniy-ma'rifiy ruknlar orqali yangi avlodni ijodkorlik, erkin fikrlash va ma'naviy barkamollikka undadi. Raqamli axborot texnologiyalari kirib kelgan davrda Surxondaryo matbuoti ham zamon talablariga moslashdi. Gazetalar o'z internet sahifalarini ishga tushirib, onlayn o'quvchilar bilan muloqotni yo'lga qo'ydi. Bu esa nafaqat axborotning tezkor tarqalishiga, balki aholining mediamadaniyatini yuksaltirishga ham xizmat qildi.

Xulosa. Umuman olganda, mustaqillik yillarida Surxondaryoda shakllangan ommabop matbuot tizimi jamiyatda ma'naviy uyg'onish, fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishi, ijtimoiy mas'uliyat va milliy g'urur tuyg'usining shakllanishida beqiyos ahamiyat kasb etdi. Bugungi kunda ham ushbu nashrlar hududning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etib, axborot makonining ajralmas qismi sifatida o'z faoliyatini davom ettirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qarorlari.
- 2."Surxon tongi" gazetasi arxivi (1991–2020-yillar).
3. Jo'raev, M. "O'zbekiston matbuoti tarixidan." – Toshkent, 2015.
- 4.Termiz davlat universiteti ilmiy to'plamlari.
- 5."Denov sadosi" va "Boysun hayoti" gazetalarining elektron nashrlari.